



TOSHKENT VILOYATI, CHIRCHIQ SHAHRI HUDUDIDAGI QABRISTONLAR HUDUDINING GEOGRAFIK O'RNI, TUPROQ HOLATI, IQLIMI

To'lqin Normuratovich Absamatov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Chirchiq shahar
t.absamatov@cspi.uz

Tursunpo'lat Chorshanbiyevich Tangriyev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Chirchiq shahar
t.tangriyev@cspi.uz

Annotatsiya. *Maqolada 2022-2023 yillardagi olib borilgan dala tadqiqotlarimizni natijasida Toshkent viloyati Chirchiq shahri qabristonlari hududidagi tuproqlar holati, hududning geografiyasi, iqlimi haqida ilmiy nazariyalar ilgari surilgan. Chirchiq shahri qabristonlarining tabiiy florasi va ularning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Toshkent viloyati Respublikaning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, shimoliy va shimoli-g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi, janubi-g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni (Toshkent shahri maydonisiz) 15,3 km.kv. Aholisi (Toshkent shahri aholisiz) 2,931 million kishidan ziyod (2022). Viloyat tarkibida 15 ta tuman (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on Ohangaron, Parkent, Piskent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq), 17 ta shahar (Angren, Bekobod, Bo'ka, Do'stobod, Keles, Olmaliq, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, To'ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiyo'l, Yangiobod, G'azalkent), 18 ta shaharcha (Alimkent, Bo'zsuv, Gulbahor, Zafar, Iskandar, Krasnogorsk, Nurobod, Olmazor, Salor, Tuyabo'g'iz, Chig'iriy, Chorvoq, Eshonguzar, Yangibozor, Yangi Chinoz, Yangihayot, O'rtaovul, Qibray), 146 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi Nurafshon shahri [1].

Toshkent viloyatining shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari G'arbiy Tyanshan tog'lari va uning tarmoqlari (Qurama, Piskom va Ugom tog'lari) bilan o'ralgan. Eng baland joyi Piskom tizmasidagi Manas tog'i (4484 m). Chatqol va Qurama tog'lari orasida Ohangaron daryosi kesib o'tgan, Ohangaron platosi joylashgan. Viloyat hududining katta qismi Sirdaryo tomon qiyalanib boradigan tog' oldi tekisligi (Chirchiq-Ohangaron vodiysi)dan iborat. Viloyat kuchli seysmik zonada joylashgan. Ayniqsa, Chirchiq va Ohangaron havzalarida aniq seziladigan zilzilalar buning ifodasidir. Juda kuchli zilzila 1868-yilda Toshkentda bo'lib o'tdi va 1966-yilda takrorlandi. Turli intensivlikdagi yer osti silkinishlar vaqtvaqti bilan hozirgi kunda ham davom etmoqda [2].

Chirchiq shahri mamlakatning Shimoliy qismida joylashgan, [Chirchiq daryosining](#) o'ng sohilida, Chatqol va [Qorjontovning](#) yonbag'rida, 730 m balandlikda, [Toshkentdan](#) 30 km shim.sharqda joylashgan. [Aholisi](#) 170,1 ming kishi



(2015). Maydoni 100 km.kv Toshkent Chorvoq [temir yo'ldagi](#) stansiya va [avtomobil yo'llari](#) chorrahasi. Chirchiq 1932-yilda daryo bo'yidagi Qirg'izquloq, Qipchoq, Niyozbek qishloqlari o'rnida yirik elektrkimyo qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan. Yangi sanoat korxonalarini qurilishi bilan aholi soni ham tez o'sdi (1939-yil 15 ming kishi, 1959-yil 65 ming kishi, 1970-yil 107,4 ming kishi). 30 – 40 yillarda Industrial texnikomi binosi, 50-yillarda elektrkimyo korxonasining Madaniyat saroyi va boshqa jamoat binolari qurildi. 1966-1967 yillardan ko'p qavatli yirik panelli binolar qad ko'tardi. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan chirchiqliklar xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik, madaniyat va istirohat bog'lari, xiyobonlar, maktablar, poliklinika, kasalxona va boshqa bunyod etildi. Shahar yonida aholining dam olish joylari mavjud [1].

Shaharda “Chirchiqqishloqmash”, “Transformator”, “O'zbekkimyomash”, “Elektrkimyosanoat” (mineral o'g'itlar) kabi korxonalar ishlab turibdi. 26 ta qo'shma korxonalar (shu jumladan, “Kibo”, “Chirkom”, “Uzmetalltexnologji”, “Bursel - Tashkent - Tekstil”), 850 dan ziyod kichik korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek shaharda g'isht, asfaltbeton zavodlari, go'sht, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari mavjud [1].

Toshkent viloyati hududidagi tekisliklarda bo'z tuproq, tog' etaklarida (500-600 m balandlikkacha) tipik bo'z tuproq, undan balandroqda chimqo'ng'ir, yuqoriroqda o'tloqdasht tuproq, yer osti suvi yuza joylashgan hududlarda o'tloq va botqoq tuproq, daryo vodiylarida allyuvial tuproqlardan iborat [95]. Chirchiq shahri hududi tuproqlari och bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib juda zichlashgan va ancha ekstremal rejimini keltirib chiqaradi, bu esa tuproq hosil bo'lishida va unumdorligida aks etgan. Chirchiq shahri hududida tarqalgan tuproqlar profilining qizg'ish - qo'ng'ir tusliligi, yirik chang va loyqa fraksiyalari ko'p bo'lgan holda mexanik tarkibining og'irligi, gumus (1-1,2 %) va oziq moddalar (NPK) miqdorining ozligi, karbonatligi, profilining zichlanganligi, g'ovakligi, Mg va suv sindiruvchanligining pastligi va o'simliklar o'zlashtira oladigan namlikning kam miqdorida bo'lishi xususiyatlari bilan liyoss yotqiziqalarda shakllangan tuproqlardan keskin farq qiladi. Bu tuproqlar ko'pincha keng to'lqinsimon va tog' va tog' oldi mintaqalarga mansub, yer yuzasining nishabliklari, gumusning ozligi, bahorgi kuchli yog'inlar, shuningdek, chorva mollarini tartibsiz yaylovlatib boqish, lalmi va sug'oriladigan yon bag'irlik yerlardan noto'g'ri foydalanish eroziya jarayonlari rivojlanishga yordam beradi. O'z navbatida eroziya tuproqning kimyoviy, agrokimyoviy, agrofizik, biologik va morfologik ko'rsatgichlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi, unumdorligini keskin pasaytiradi. Subtropik zonaning asosiy tuproqlari bo'lgan qizil tuproqlar (profilida temir va marganetsning yirik qora konkretsiya yaralmalari qizil rang beradi) qizg'ish tusli tuproqlardan yuqori qatlamlarida gumus (6-9 % gacha) va azot (0,2-0,4) miqdorining ko'pligi hamda tuproq fizik xossalari ancha yaxshiligi, ayniqsa, suvga chidamli strukturaning ko'pligi, eroziyaga qarshi tura olishi va suv o'tkazuvchanligi bilan farq qiladi [3].

Hudud iqlimining vujudga kelishida uning geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulatsiyasi, relyefi, yer yuzasining holati (yer yuzasi



nimalar bilan qoplanganligi) va kishilarning xo'jalik faoliyatlari (antropogen) ta'sir etadi [2].

O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra ancha janubiy kengliklarda joylashgan. Shu sababli quyosh uni uzoq vaqt yoritib va isitib turadi. Lekin O'zbekiston hududi shimoldan janubga 925 km cho'zilganligi tufayli quyoshning nuri uning hamma qismiga bir xil tushmaydi. Agar shimoliy qismiga yozda (22- iyunda) quyosh 71-72° burchak hosil qilib tushsa, janubida 76° ni tashkil etadi. Binobarin, shimolda quyosh yiliga 2500 - 2800 soat nur sochib tursa, janubda 3000-3100 soat nur sochib turadi. Shu sababli O'zbekistonni «serquyosh o'lka» deb yuritiladi. O'zbekistonning yil davomida har bir sm^2 yuza qismi quyoshdan shimolda 130, janubda 160 kkal radiatsiya (issiqlik energiyasi) oladi. O'zbekiston hududiga yiliga o'rtacha tushayotgan quyosh energiyasining miqdori 30 mlrd tonna ko'mir ekvivalentiga teng. O'zbekiston iqlimining vujudga kelishida atmosfera sirkulatsiyasining ahamiyati katta. Qishda O'zbekiston hududiga shimoli-sharqdan Sibir antisiklon havo massalari, shimoldan Arktika havo massalari kirib kelib, uning janubiy qismlarigacha yetib boradi. Natijada havo ochiq bo'ladi, lekin harorat pasayib, sovib ketadi.

Toshkent viloyatining iqlimi keskin kontinental. Qishi nam, nisbatan iliq, yozi uzoq, issiq va quruq. Yanvarning o'rtacha temperaturasi $-1,3^\circ$, $-1,8^\circ$, eng past temperatura -34° (tekislikda), -38° (tog' etaklarida), iyulning o'rtacha temperaturasi $26,8^\circ$, eng yuqori temperatura $43-47^\circ$. Tekislik qismida yiliga 250 mm, tog' oldilariga 350-400 mm, tog'larda 500 mimgacha yog'in yog'adi. Yog'inning ko'p qismi bahor va qishda yog'adi. Qor tog'lardagina uzoqroq saqlanadi. Vegetatsiya davri tekislik qismida 210 kun.

Chirchiq shaxrining iqlimi bir xil emas. Chirchiq shaxrining iqlimi Chirchiq-Ohangaron tabiiy okrugi iqlimidan kelib chiqib baholanadi. Uning tekislik qismiga ko'proq Arktikaning sovuq hamda g'arbdan esadigan iliq va nam havo massalarining oqimi kirib keladi. Uning yozi issiq va quruq aksincha, tog'li qismi nisbatan salqin va namroq. Yozning eng issiq kunlarida harorat tekislik qismida $+44^\circ\text{C}$ gacha, tog'larda esa undan past. Qish yanvarning o'rtacha harorati tekisliklarda -1 -2°C , eng sovuq harorat -30°C atrofida bo'ladi [3].

Joyning mutlaq balandligi ortib borgan sari yer yuzasi bo'laklarning bo'linishi odatda kuchayadi, havo temperaturasining rejimi yumshab, yog'in miqdori ortadi, o'simlik qoplami ham chala cho'l efemerlaridan quruq dashtga xos o'tlar, o'tloqi-dasht va dasht o'simliklariga qadar navbatlanib boradi [4]. Chirchiq shahridan Chirchiq daryosi oqib o'tgan bo'lib, daryo [Sirdaryoning yirik o'ng irmog'i bo'lib hisoblanadi](#). Daryo havzasi janub va sharqdan [Qurama tog' tizmasi](#) va [Chatqol tog' tizmalari](#), shimolida [Talas Olatovi](#) va uning g'arbiy tarmoqlari bilan chegaralangan. Chirchiq daryosi Talas Olatovi, Chatqol, Piskom, Qorjontov va Ugom tog'laridan suv oladi, Chatqol va Piskom daryolarining qo'shilgan joyidan Chirchiq deb ataladi. Chirchiq daryosining Chatqol, Piskom, Ko'ksuv va Ugom kabi irmoqlari mavjud. Chirchiq daryosi tekislikka chiqqach, unga o'ng tomondan Qizilsuvsoy, Qoraqiyasoy, Oqtoshsoy,



chap tomondan Qoranqulsoy, Glavasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Zarkentsoylar qo'shiladi. Chirchiq daryosi suvini 100 foiz desak, shuning 55 foizi Chatqolga, 36 foizi Piskomga, 9 foizi Ugom va boshqa irmoqlariga to'g'ri keladi.

1971-yilgacha Chirchiq daryosi Chatqol va Piskom daryolari qo'shilishidan hosil bo'lar edi. Endilikda daryo Chorvoq suv omboridan boshlanadi va [Chinoz](#) qishlog'i yonida Sirdaryoga quyiladi. Uzunligi 154 km, havzasining maydoni 14240 km². Chirchiq tez oqadigan tipik tog' daryosi hisoblanadi. [Ugom](#) daryosi qo'shilgandan so'ng Chirchiq vodiysi kengayadi. Vodiyning tekislik qismida daryoga bironta ham irmoq qo'shilmaydi. Daryo qor va muzlik suvlaridan to'yinadi [5]. Chirchiq shahri hududidan oqib o'tuvchi bu daryo shahar hududi yerlarining sug'orilishi va havoning namligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Chirchiq shahridan esadigan shamollarning yonalishi Sibir antisikloni va Turon tekisligining janubidagi siklonlar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu sababli hududda shamollar asosan shimoli-g'arbiy, shimoliy va shimoli-sharqiy yo'nalishda esadi [5].

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. Тожибаев К.Ш. Флора Юго-Западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан). Дис. ...докт.биол. наук. – Ташкент, 2010. – 178 с.
2. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu. Reassessment of diversity and analysis of distribution in Tulipa (Liliaceae) in Uzbekistan // Nordic Journal of Botany. Vol. 33 (2015). – P. 324-334.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_viloyati.
4. <https://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/142-chirchiq-ohangaron-tabiiy-geografik-okrugi.html>
5. T.N. Absamatov, U.H. Development, & T.CH. Tangriyev. (2023). Comprehensive Analysis Of The Flora Of Cemeteries Common In The City Of Chirchik. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 20, 29–33. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/3937>